



“INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2024”

“JAZO HISOBLANMAYDIGAN JINOIY HUQUQIY TA'SIR CHORALARINI TAKOMILLASHTIRISHNING JINOIY HUQUQIY VA JINOYAT IJROIYA JIHATLARI”

*O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Akademiyasi Tarbiyaviy ishlarni tashkil
etish va mukofotlash bo'limi inspektori*

Orziqulova Sevara Normamat qizi

Joriy yilning 26 iyulida Jinoyat-ijroiya qonunchiligini takomillashtirish bo'yicha Idoralararo ekspert guruhi va Bosh prokuratura Akademiyasi bilan hamkorlikda hamda BMTning Narkotik moddalar va jinoyat boshqarmasi ko'magi asosida xorijiy ekspertlari ishtirokida “O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-ijroiya kodeksini takomillashtirish masalalari” mavzusida davra suhbatlari tashkil etildi.

Tadbirda Bosh prokuratura, Oliy sud, Bosh prokuratura huzuridagi Majburiy ijro byurosi, Ichki ishlar vazirligi xodimlari shuningdek, Bosh prokuratura Akademiyasi, Sudyalar oliy kengashi huzuridagi Sudyalar oliy maktabi, Ichki ishlar vazirligi Akademiyasi, Toshkent davlat yuridik universiteti vakillari ishtirok etishdi.

Davra suhbatlari davomida penitentsiar tizimi sohasidagi xalqaro standartlar va normalarni inobatga olgan holda O'zbekiston Respublikasi jinoyat-ijroiya qonunchiligini takomillashtirishning asosiy yo'nalishlari hamda ozodlikdan mahrum qilish bilan bog'liq bo'lmagan jazolarni ijro etish mexanizmlarini tubdan qayta ko'rib chiqish masalalari muhokama etildi.

Tadbir yakunida umume'tirof etilgan xalqaro standartlarga mos ravishda mahkumlar huquqlari doirasini yanada kengaytirish va jazoni ijro etish muassasalari faoliyati ustidan jamoatchilik nazoratini kuchaytirish, ularning ozodlikdan mahrum etish joylardan ozod etilgan shaxslarni ijtimoiy moslashtirishda fuqarolik jamiyati institutlari bilan uzviy hamkorligini ta'minlash jinoiy jazolarning ijrosini ta'minlash sohasidagi normativ-huquqiy bazani yanada takomillashtirishning ustuvor yo'nalishlari hisoblanishi ta'kidlandi.

Jinoyat ijroiya kodeksi (JIK) – jinoiy jazolarni ijro etish va o'tash tartibi hamda shartlarini belgilab beruvchi jinoyat ijroiya qonun hujjatlari majmui. O'zbekiston Respublikasi JIK 1997-yil 25 aprelda tasdiqlanib, shu yil 1 oktabrdan amalga kiritilgan. JIK umumiy va maxsus qismlardan, 9 bo'lim, 34 bob, 197 moddadan iborat. Ularda, shuningdek, JIKga muvofiq qabul qilinadigan boshqa qonun hujjatlarida jinoiy jazoni, boshqa jinoiy-huquqiy ta'sir choralarini ijro etish prinsiplari, tartibi va shartlari ko'rsatilgan; mahkumlarning huquqiy maqomi; mahkumlarni axloqan tuzatish vositalari hamda ularni qo'llash; mahkumlarni jazoni



"INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2024"

o'tashdan ozod qilish; jazoni ijro etuvchi muassasa va organlar faoliyati tartibi; mahkumlarni axloqan tuzatishda davlat hokimiyati va fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organlari, korxonalar, muassasa, tashkilotlar, jamoat birlashmalari va fuqarolarning ishtiroki belgilab berilgan.

Jinoyat kodeksi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va xalqaro huquqning umum e'tirof etgan me'yorlariga asoslangan holda ishlab chiqilgan. Hozirgi JK 1994-yil 22-sentabrda tasdiqlangan va 1995-yil 1-apreldan amalga kiritilgan. 2-qismdan – umumiy qism va maxsus qismdan iborat, ular yagona jinoyat qonunini tashkil etadi. Umumiy qismda jinoyat qonunining umumiy qoidalarini, javobgarlik asoslari, qilmishning jinoiyligini istisno etadigan holatlar, jazo va uni tayinlash, javobgarlikdan va jazodan ozod qilish, voyaga yetmaganlar javobgarligining xususiyatlari, tibbiy yo'sindagi majburlov choralarini belgilab berilgan. Maxsus qismda jinoyatlarning turlari va ular uchun tegishli jazolarni tayinlaydigan me'yorlar ko'rsatilgan. Umumiy qismda Maxsus qismdagi huquqiy me'yorlarni amalda tadbiq qilish yo'llari bayon etilgan.[1] 2021-yil Jinoyat kodeksining 244-moddasiga o'zgartirish kiritilib, unda „ommaviy tartibsizlikka da'vat qilganlik uchun“ javobgarlik belgilandi.

O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurorining ushbu masalani hal qilishda prokurorlar tomonidan e'tiborga olinishi lozim bo'lgan holatlarni o'zida mujassamlashtirgan buyrug'i talablari;

- O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurorining 2004-yil 12-apreldagi «Qurolli Kuchlar, Milliy xavfsizlik xizmati va bojxona organlarida qonunlar ijrosi ustidan nazorat boshqarmasi to'g'risida»gi Nizomni tasdiqlash haqidagi 7-buyrug'i talablari;

- O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurorining 2004-yil 12-apreldagi «Soliqqa oid qonunchilik ijrosi ustidan nazorat bo'limi to'g'risida»gi Nizomni tasdiqlash haqidagi 10-buyrug'i va Nizom talablari;

- O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining ushbu masala yuzasidan qabul qilgan qarori va prokurorlarning tutgan o'limi va ular oldiga qo'yiladigan talablar nimalardan iborat ekanligi, jumladan, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurorining 2004-yil 23-apreldagi «Voyaga yetmaganlar haqidagi qonunlar ijrosi ustidan nazorat bo'limi to'g'risida»gi Nizomni tasdiqlash haqidagi 11-buyrug'i va Nizom talablari;

- O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurorining 2004-yil 23-apreldagi «Sudlarda jinoyat ishlari ko'rilishida prokuror vakolatini ta'minlash boshqarmasi to'g'risida»gi Nizomni tasdiqlash haqidagi 12-buyrug'i va Nizom talablari;



"INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2024"

- «Sudlarda jinoyat ishlarini ko'rilishida prokuror ishtirokini ta'minlashning samaradorligi va ta'sirchanligini oshirish to'g'risida»gi buyrag'i talablarini;
- O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasining 2004-yil 23-apreldagi «Sudlarda fuqarolik ishlari ko'rilishida prokuror vakolatini ta'minlash boshqarmasi to'g'risida»gi Nizomni tasdiqlash haqidagi 13-buyrug'i va Nizom talablari;
- O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasining 2004-yil 23-apreldagi «Sudlarda xo'jalik ishlari ko'rilishida prokuror vakolatini ta'minlash boshqarmasi to'g'risida»gi Nizomni tasdiqlash haqidagi 14-buyrug'i va Nizom talablari;
- 2004-yil 11-maydagi «Xo'jalik sudlarida ishlar ko'rilishida prokuror ishtirokining samaradorligi va ta'sirchanligini oshirish to'g'risida»gi 23-buyrug'i talablarini;
- prokuromi protsessual harakatlarini tashkil etish va o'tkazishni;
- o'zining kasbiy malakasini muntazam ravishda oshirib borishi, amaldagi qonunlarni, ularga kiritilayotgan o'zgartirish va qo'shimchalami o'zlashtirib borishi va ularni amaliyotda to'g'ri qo'llashni bilishi va qo'lay olishi kerak. Shuningdek, bakalavr talaba:
 - prokurorlik nazoratini takomillashtirishning huquqiy, ilmiy nazariy muammolarini tahlil qilish va hal qilish bo'yicha mustaqil fikr bildirish salohiyatiga ega bo'lishi;
 - prokuroming vazifalarini amalga oshirish yuzasidan berilgan topshiriqlarni mustaqil bajara olish;
 - prokuratura faoliyatining yo'nalishlari bo'yicha har bir yo'nalishning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda prokuror nazorati hujjatlari loyihasini tuzish;
 - fuqarolarning taklif, ariza va shikoyatlarini ko'rib chiqib, yuqori darajada hamda to'g'ri hal qilish yuzasidan yetarli ko'nikmalarga ega bo'lishi kerak. Maxsus qismida O'zbekiston Respublikasining 2001-yil 29-avgustda qabul qilingan yangi tahrirdagi «Prokuratura to'g'risida»gi Qonunida alohida bob tariqasida yangidan joriy qilingan «Fuqarolarning huquq va erkinliklariga rioya etilishi ustidan prokuror nazorati»ning mohiyati va mazmuni yoritib berilgan.

Maxsus qismida prokuratura organlari faoliyatini tartibga soluvchi O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurorining ayrim buyruqlari, ko'rsatmalari va nizomlari mazmuni yoritib berilgan. Tekshirishlar nazorat qiluvchi rahbar tomonidan tasdiqlangan reja asosida o'tkazilib, belgilangan muddatda yakunlanishi, tekshirishga mas'ul bo'lgan xodim shu vaqt mobaynida mutasaddi mansabdor shaxslardan qonun buzilishiga sabab bo'lgan holatlar bo'yicha batafsil tushuntirishlar olib, barcha hujjatlarni jamlab, natijasi haqida nazorat qiluvchi



"INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2024"

rahbarga ma'lum qilishi va prokuror nazorati hujjatlari loyihalarini tayyorlashi lozim.

Tekshirishga bir necha xodim ijrochi sifatida jalb etilganda, ro'yxatda birinchi ko'rsatilgan shaxs ijro uchun asosiy mas'ul hisoblanadi. Tekshirishda ishtirok etgan xodimlar tekshirilgan obyekt muqaddam nazorat idoralari tomonidan o'tkazilgan tekshirish natijalariga huquqiy baho berishlari va natijasi bo'yicha tavsiya kiritishlari zarur.

Tekshirish natijalari bo'yicha hajmi 15 varaqdan ko'p bo'lmagan, umumlashtirilgan tahliliy ma'lumotnoma tuziladi va tekshirishga mas'ul bo'lgan prokuratura xodimi, jalb qilingan tegishli mutaxassislar, tekshirilgan obyektning mansabdor yoki javobgar shaxslari tomonidan imzolanadi. Ma'lumotnomaga ilova qilinayotgan boshqa hujjatlar tuzgan, shuningdek, tekshirilgan obyektning mansabdor qyoki molga javobgar shaxslari tomonidan imzolanadi.

O'zbekiston Respublikasining «Prokuratura to'g'risida»gi Qonuniga muvofiq, protest, qaror, taqdimnoma, ariza va ogohlantirish prokuror nazorati hujjatlari hisoblanadi. Huquqbuzarliklarning oldini olish va profilaktika qilish qonun buzilishini bartaraf qilish vositasi sifatida qaralmog'i lozim.

REFERENCES:

1. Jinoyat va jinoyat-protsessual qonunchiligi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida [O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori, 14.05.2018 yildagi PQ-3723-son]. <https://lex.uz/ru/docs/3735818>

2. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami. 2007. - № 15. mod. 152; - 2008. - № 52. mod. 510; - 2011.- № 16. mod. 159; -2014. - № 16. mod. 176; - 2017. - № 14. mod. 213, № 22. mod. 406, № 35. mod. 914.

3. O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida [O'zbekiston Respublikasining Qonuni, 18.04.2018 yildagi O'RQ-476-son.